

**MA’NAVIY-MA’RIFIY TADBIRLAR. AGROTEXNOLOGIYA FAKULTETI**

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Agrotexnologiya fakultetida tarbiyaviy ishlar tizimini takomillashtirish, talabalarga yuksak axloqiy va ma’naviy-ma’rifiy fazilatlarni singdirish, yot g‘oya va mafkuralarga nisbatan immunitetini mustahkamlash, talabalarining sog‘lom turmush tarzi va dam olishini tashkil qilish uchun shart-sharoitlar yaratish yuzasidan Universitet yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar yo‘nalishida 2024-2025 o‘quv yili davomida amalga oshiriladigan vazifalar bo‘yicha ish rejalarini ishlab chiqilib, tasdiqlangan. Fakultetda mavjud 2 ta kafedralar professor-o‘qituvchilarining ma’naviy-ma’rifiy hamda tarbiyaviy ishlar bo‘yicha “Ustoz-shogird” tizimi asosida talabalarga biriktirilgan bo‘lib, ish rejalarini ishlab chiqilib, tasdiqlangan. Ma’naviyat Kengashining 2024 – 2025 o‘quv yili Ish rejasini ishlab chiqildi va tasdiqlandi. Yoshlar ittifoqi, Xotin-qizlar Kengashi hamda tyutorlarning 2024 – 2025 o‘quv yili davomida ma’naviy-ma’rifiy, tarbiyaviy va yoshlar bilan ishlash sohasida amalga oshiriladigan ishlar bo‘yicha rejalarini ishlab chiqildi va tasdiqlandi.

Agrotexnologiya fakulteti tarbiyaviy ishlar tizimini takomillashtirish, talabalarga yuksak axloqiy va ma’naviy-ma’rifiy fazilatlarni singdirish, yot g‘oya va mafkuralarga nisbatan immunitetni mustahkamlash, talabalarida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish borasida hamkor tashkilotlar:

O‘zbekiston respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Samarqand viloyat Ichki ishlar boshqarmasi, viloyat prokuraturasi, Adliya boshqarmasi, Davlat xavfsizlik xizmati

Madaniyat va sport boshqarmasi, O‘zbekiston yoshlar ishlari agentligi viloyat kengashi, viloyat va shahar Ma’naviyat va ma’rifat bo‘limlari Samarqand viloyat va tuman hokimliklari, Reproduktiv salomatlik markazi, viloyat OITSga qarshi kurashish markazi, Narkologiya dispanseri, viloyat OTMlari, mahallalar, turli jamoat tashkilotlari, mehribonlik uylari, harbiy qismlar

Hamkorlikdagi tashkil etilgan tadbirlar va unda talaba-yoshlar qamrovi Ma’naviy- ma’rifiy sohadagi tadbirlar (50 dan ortiq), Huquqbazarlik va jinoyatchilikni oldini olishga qaratilgan tadbirlar (30 dan ortiq), Talaba-yoshlarni yot g‘oya va mafkuralarga nisbatan immunitetini mustahkamlashga qaratilgan tadbirlar (40 dan ortiq), Sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish hamda sport tadbirlar (40 dan ortiq).

**YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH.**

Vatanparvarlik tarbiyasi yo‘nalishida olib borilgan ma’naviy-ma’rifiy, tarbiyaviy ishlar talabalarda mustaqil Vatanimizni sevish, uning har bir qarich yerini, onatuproqni qadrlash, vatanimiz mustaqilligiga tahdid soluvchi g‘oyalar, kuchlarga qarshi faol kurash olib borish tuyg‘ularini tarbiyalashga yo‘naltirilgan. Mustaqillikning 33 yilligi munosabati bilan fakultetda “Yangi O‘zbekistonda el aziz, inson aziz!” “Ajodolar yodi”, “Jannatmakon diyor” “Mard askar – yoshlarga namuna” “Ulug‘imsan, Vatanim!” “O‘zbekiston –yoshlar mamlakati!”,

“O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qil!” rukni ostida “Axborot va murabbiylik” mashg‘ulotlari doirasida tyutorlar rahbarligida Samarqand viloyatidagi tarixiy obidalar va ziyoratgohlar, muzeylar va qo‘riqxonalar, zamonaviy buniyodkorlik ob’ektlari va sanoat korxonalariga, shuningdek, kino va teatrlarga 300 dan ortiq tashriflari ham uyushtirilib, 400 nafarga yaqin talaba-yoshlar qamrab olindi.

**TALABA-YOSHLARINI YOT G‘OYA VA MAFKURALARGA NISBATAN IMMUNITETINI MUSTAHKAMLASH.** Universitetda hozirgi vaqtgacha O‘zbekiston musulmonlari idorasining Samarqand viloyati vakilligi, Samarqand viloyat ichki ishlar boshqarmasi Terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashish boshqarmasi, Samarqand shahar ichki ishlar bo‘limi Terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashish bo‘limi, Hadis ilmi maktabi, Samarqand viloyat va shahar ma’naviyat va ma’rifat bo‘limlari bilan hamkorlikda “Jaholatga qarshi ma’rifat”, «Xavfsiz hayot uchun» velo va piyoda yurish marafoni “Ogohlilik davr talabi”, “Xalqaro bag‘rikenglik kuni”, “Odam savdosi – asr vabosi!” va “Terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashish”, “Giyohvandlik va narkojinoyatchilikning oldini olish va uning ayanchli oqibatlari” mavzularda o‘quv yili davomida 40 dan ortiq tadbirlar tashkil etildi va tadbirlarga 3000 nafar talaba-yoshlar jalb etildi.

**Talaba yoshlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish.** Universitet talaba-yoshlari o‘rtasida sportning shaxmat, shashka, stol tennisi, futbol, voleybol, mini futbol, armresling, og‘ir atletikaning tosh ko‘tarish va yengil atletikaning 100 metrga yugurish turlari bo‘yicha, 60 dan ortiq bellashuv, tanlov va musobaqalar, hamda universitet hududi bo‘ylab yurush marafonlari yuqori saviyada tashkil etildi. 2024-yil 1-oktabr - Ustoz va murabbiylar kuniga bag‘ishlab universitetda professor-o‘qituvchilar va ishchi xodimlar o‘rtasida sportning stol tennisi, shaxmat turlaridan fakultetlar birinchiligi o‘tkazildi; viloyat miqyosidagi “Xalqaro salomatlik kuni”, “Xavfsiz hayot uchun” yurish marafoni, “Yangi nafas” yugurish va yurish marafonlari va musobaqalarida fakultetning 100 nafardan ortiq talaba-yoshlari va 40 nafarga yaqin professor-o‘qituvchilar va xodimlar ishtirok etdi.

**TALABA-YOSHLARINING DAM OLISHINI TASHKIL QILISH VA ULARNI HAR TOMONLAMA QO‘LLAB-QUVVATLASH.** Universitet tomonidan Samarqand viloyati hokimligi madaniyat boshqarmasi, Samarqand davlat muzey-qo‘riqxonasi, Samarqand viloyat musiqali drama teatri, Kattaqo‘rg‘on drama teatri, Respublika kino prokat markazi Samarqand viloyat filiali Davlat unitar korxonasi “Sharq yulduzi” DUKlar bilan hamkorlik shartnomalari tuzilib, Samarqand davlat muzey-qo‘riqxonasi tarkibidagi 10 ta muzeyga, Samarqand viloyat “Sharq yulduzi” kinoteatrida tashkil etilgan kinofilmlar namoyishiga, Samarqand viloyati musiqali dramma teatrinda tashkil etilgan spektakllar namoyishiga fakultet talaba-yoshlaring tashrif buyurishlari tashkil etildi. Samarqand shahrida joylashgan “Registon” maydoni, “Go‘ri Amir” maqbarasi, Shohizinda ziyorotgohi, Xo‘ja-Axrор Vale ziyorotgohi, Bibixonim maqbarasi, Mirzo Ulug‘bek rasadxonasi, mamlakakatimiz birinchi Prezidenti I.A.Karimov qabri, viloyatning Nurobod va Payariq tumanlarida joylashgan

“Hazrati Dovud“ va Al-Buxoriy ziyoratgohlariga 300 nafardan ortiq talaba-yoshlarning sayohat va ziyoratlar tashkil etildi.

Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirzoyoyev tomonidan ilgari surilgan “Besh muhim tashabbus” doirasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi. Jumladan:

### **BIRINCHI TASHABBUS**

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetida tashkil etilgan “Besh muhim tashabbus” markazi qoshida birinchi tashabbus doirasida - yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san’atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishga, iste’dodini yuzaga chiqarish maqsadida faoliyati yo‘lga qo‘yilgan “Quvnoqlar va zukkolar” klubi, “Talabalar teatr studiyasi” klubi, “Sozanda yoshlar” to‘garagi, “Ranglar sehri” to‘garaklarida;

**IKKINCHI TASHABBUS DOIRASIDA** – yoshlarni jismoniy chiniqtirish, ularning sport sohasida qobiliyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratish maqsadida “voleybol” to‘garagi, “gandbol” to‘garagi, “futbol” to‘garagi, “shaxmat va shashka” to‘garagi, “stol tennisi” to‘garagi, “kurash” to‘garagi, “basketbol” to‘garagi, “yengil atletika” to‘garaklarida;

**UCHINCHI TASHABBUS DOIRASIDA** – universitet, fakultet hamda mahallalar yoshlari o‘rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etish maqsadida kompyuter bilimdonlari” to‘garaklarida;

**TO‘RTINCHI TASHABBUS DOIRASIDA** – yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish,

Ular o‘rtasida kitobxonlikni keng targ‘ib qilish bo‘yicha tizimli ishlarni tashkil etish maqsadida “zakovat” intellektual klubi, “mutolaa zavqi” to‘garagi, “baxs munozar” to‘garagi, “notiqlik sa’nati” to‘garaklarida;

**BESHINCHI TASHABBUS DOIRASIDA** – xotin-qizlarni ish bilan ta’minalash masalalari, tadbirkorlik faoliyatiga keng imkoniyatlar yaratish hamda iste’dodlarini namoyon qilish maqsadida “Dilbar qizlar” klubi, “Mohir qo‘llar” to‘garagi, “Pazandachilik” to‘garagi, “Tikuvchilik” to‘garaklarida fakultet talabalari faol qatnashib kelmoqda.

**TALABALARNI MODDIY QO‘LLAB –QUVVATLASH MAQSADIDA.** O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentyabrdagi “Ota-onasi yoki ularning biridan ayrilgan muhtoj yoshlar va boquvchisi yo‘q yolg‘iz ayollarning oliy ta’lim olishini moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 585-sod qaroriga asosan universitetda tahsil olayotgan ijtimoiy himoyaga muhtoj bo‘lgan talaba-qizlarni qo‘llab-quvvatlash 2 nafar talaba-qizlarning ro‘yxati doimiy yashash joyidagi viloyat hokimliklariga to‘lov-shartnomalarini to‘lab berishlishi uchun taqdim etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 24-sentyabrdagi “Ijara huquqi asosida yashayotgan talabalar tomonidan to‘lanadigan ijara to‘lovlarini qoblab berish tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 605-sod

qarori ijrosi yuzasidan fakultet Komissiyasi tuzildi. Bugungi kunga qadar fakultetda tahsil olayotgan 71 nafar talaba-yoshlarning ijara to‘lovlarini bir qismi qoplab berildi.

Universitet rektorining 2022-yil 7-dekabrdagi 251-sonli buyrug‘iga asosan Talabalarni rag‘batlantirish jamg‘armasi hisobidan universitetda alohida qobiliyat va iqtidor egasi bo‘lgan, jamoat ishlarida faol bo‘lgan talabalarni moddiy qo‘llab-quvvatlash maqsadida 4 nafar, 2023-yil 18-martdagi 57-sonli buyrug‘iga asosan Talabalarni rag‘batlantirish jamg‘armasi hisobidan universitetda alohida qobiliyat va iqtidor egasi bo‘lgan, jamoat ishlarida faol bo‘lgan hamda ijtimoiy himoyaga muhtoj talabalarni moddiy qo‘llab-quvvatlash maqsadida 3 nafar talabalarga bazaviy stipendiyaning 3 barovarigacha bir martalik moddiy rag‘batlantirildi. Shuningdek 70 dan ortiq tanlovlardan tashkil etilib, 400 dan ortiq talaba-yoshlar moddiy va ma’naviy rag‘batlantirildi.

Tadbirlar bajarilishining monitoringi natijasida 2024-2025-o‘quv yili davomida yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bo‘yicha, talaba-yoshlarini yot g‘oya va mafkuralarga nisbatan immunitetini mustahkamlash bo‘yicha, fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish va huquqiy savodxonlik, sog‘lom turmush tarzi falsafasini shakllantirish va jismoniy tarbiya bo‘yicha, kasb ma’naviyati va mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash bo‘yicha, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik ruhida tarbiyalash bo‘yicha, ekologik va talabalarga yuksak axloqiy va ma’naviy-ma’rifiy fazilatlarni singdirish bo‘yicha hamda O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligi tamoyillariga sadoqatli hamda jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo‘sishga qodir shaxsni shakllantirish, milliy qadriyatlar va an'analar, ajdodlarimizning boy madaniy merosini targ‘ib etish, milliy bayramlar, tarixiy sanalar, buyuk ajdodlar tavalludini nishonlash bo‘yicha jami 420 dan ortiq (2023-2024-o‘quv yilda 230 dan ortiq) o‘tkazilgan davra suhbatlari, uchrashuvlar va seminar-trening, tanlovlarda fakultetdan 30 nafardan ortiq professor-o‘qituvchilar hamda 300 nafardan ortiq talaba-yoshlar faol ishtirok etdi.